



NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BO'LGAN O'QUVCHILARDA BILISH JARAYONLARI RIVOJLANISHINING IJTIMOY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

¹Latipova Rushana Raxim qizi
Ilmiy rahbar: ²Ramazonov Jahongir

ARTICLE INFO

Received: 16th May 2023
Accepted: 23th May 2023
Online: 24th May 2023

KEY WORDS

Aqli zaif, nutq nuqsoni, logoped,
korreksion ishlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada nutq kamchiligiga ega bo'lgan o'quvchilarda bilish faoliyatining buzilishlari natijasida nutqidagi nuqsonlari hamda aqli zaif bolalarda nutq rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

KIRISH

Bola shaxsining har tomonlama rivojida nutq benuqsonligining ahamiyati katta. Chunki nutq – kishilararo aloqa quroli, barcha sohalarda qudratli muomala vositasidir. Nutq bolalarda asta sekin rivojlanadi. Bolalar o'sib rivojlangan sari nutqi ham rivojlanib boradi. Bolalarning nutqi maromida bo'lishi uchun bosh miya po'stidagi nutq markazi to'liq rivojlangan bo'lishi, ularning sezgi organlari-eshitish, ko'rish, ta'm bilish, hid bilish, teri sezgisi ham yetarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Ayniqsa nutqni xarakterga keltiruvchi va nutqni eshituvchi analizatorlarning rivojlanishi juda muhimdir. Agar bola yangi, aniq taassurotlar olib turmasa, uning harakatlari va nutqining rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratib berilmasa, unda boladagi jismoniy va ruhiy rivojlanish tormozlanadi. Bolani juda yoshligidan boshlab narsalarni tanishga, atrofdagilarning ovozi eshitishga o'rgatib borish kerak. Bu bilan esa biz bola nutqining rivojlanishiga yordam bergan bo'lamiz [2].

ADABIYOTLAR SHARHI

Demak, nutqning to'g'ri tarkib topishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muxiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Lekin ba'zi sabablar tufayli bola nutqi rivojlanishi sustlashadi, orkada koladi.

Bolalik shunday davrki, bu vaktida shaxsning eng muxim sifatlar yuzaga kelishiga hamda uning munosabatlarini shakllanishiga zamin yaratiladi. Bolalar bog'chasining ta'lim-tarbiya dasturida og'zaki nutqning, ya'ni lug'at boyligining oshib borishini, nutqning grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishini, tovush talaffuzini xar tomonlama rivojlantirish nazarda tutiladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar orasida nutq buzilishlariga ega bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil etadi. Shuning uchun bolalardagi nutq nuksonlarini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki nutqiy patologiya - bu insonning muhim psixik funksiyalarini buzilishidir [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL



Nutq - insoning murakkab psixologik faoliyatidir. Nutqning rivojlanishida biologik va ijtimoiy omil asos buladi. Nutq faoliyatini amalga oshirishda eng muhim organ - bosh miya, uning barcha analizatorlari va pereferik nutq organlaridir. Bola nutqi shakllanishida o'ziga xos ketma-ketlik mavjud va u bir necha bosqichlardan iborat. Agar bolaning sensor, motor (harakat) va intellektual imkoniyatlari chegaralangan, rivojlanishida muammolar mavjud bo'lsa, bu kamchiliklar nutq rivojiga ham uz ta'sirlarini ko'rsatadi. V.I. Lubovkinaning nuqsonli rivojlanish konuniyatlari nazariyasiga ko'ra, har bir bolaning qanday nuqsonga ega bo'lishidan qat'iy nazar (eshitishda, ko'rishda, intellektida, tayanch aparati va h.k.), ularning nutqiy shakllanishida ham kamchilik mavjud bo'ladi. Bunday bolalarni "xavf-xatar guruhiga kiritish mumkin, shuning uchun bolani ilk bor (0- Zyoshgacha) nutqiy rivojlanish" logopedik ko'rikdan o'tkazib, uning nutqiy rivojlanmaganlik darajasini aniqlab, ertarok; logopedik yordam kursatish dolzarb masala deb bilishimiz lozim. Ilk yoshdagi bolalarni nutqiy rivojlanish darajasini logopedik tekshirish natijasining ilmiy-nazariy asosini quyidagi mezonlar tashkil etadi [4]:

- kattalarni nutqini idrok etish darajasini aniqlash;
- kattalarni nutqini tushunish darajasini aniqlash;
- passiv va aktiv lug'at zaxirasining darajasini aniqlash;
- tovush talaffuzining holatini aniqlash;
- grammatik tuzumini tekshirish.

Mazkur mezonlarni aniqlash uchun prof. L.R. Mo'minova ishlab chiqqan «Ilk yoshdagi bolalarni logopedik ko'rikdan o'tkazish metodikalari buyicha har chorakda 20 ta bola tekshirilib, bolalardagi o'zgarishlar belgilab borilmokda. Olingan natijalar asosida bolani nutqiy rivojlanishi hakida xulosa chikariladi va korreksion- rivojlantiruvchi logopedik dastur tuziladi. Bolaning ota-onalariga maslahatlar beriladi. Bolaning yoshiga, ega bo'lgan nutq nuqsonlariga hamda rivojlanmaganlik darajasiga karab, maxsus maktabgacha muassasalarga yullanma ooish bo'yicha tavsiyalar qilinadi.

O'z navbatida bog'lanishli nutq hikoya va insho lug'atini boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlantirish og'zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Shunki u o'quvshilardan grammatik va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashni, fikrni ixcham, izshil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar sosida xulosalar shiqarishni talab yetadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog'liq. So'zni to'g'ri yozish, tinish belgilarini o'rinli qo'llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o'quvshidan katta mas'uliyatni talab yetadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi. Yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og'zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga yega. O'quvshi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf yetadi, keyingi ishlarida bu xato va kamshiliklarga yo'l qo'ymaslikka intiladi. O'qituvshi shuni ham unutmaslik lozimki, ko'pincha o'quvshilar yozma ishlarda imlo va tinish belgilariga katta ye'tibor berib, matnning mazmuni ustida yetarli ish olib bormaydilar.

Pedagogik kitoblarda berilgan ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, 7 yoshli bolalar 3000 dan 7000 gacha, 10-11 yoshli bolalar 8000 dan 15000 gacha, 14-15 yoshdagilar 11000 dan 18000



gacha so'zni bilishlari lozim. Ammo, afsuski, ona tili mashg'ulotlarida fikrni og'zaki va yozma shaklda bayon qilish zaruriyati tug'ilganda o'quvshilardagi so'z qashshoqligi darrov sezilib qoladi. Nutqda so'zlarni takroriy qo'llash, berilgan so'zni uning ma'nodoshi, uyadoshi va qarama-qarshi ma'noligi bilan almashtira olmaslik, ma'lum bir sohaga qarashli so'zlar lug'atini tuzishda ushraydigan qiyinchiliklar, shubhasiz, o'quvshilarning so'z boyligi yetarli yemasligidan dalolat beradi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvshilar nutqining rivojlanishini qiyinlashtirayotgan omillardan yana biri o'quvshilarning uyda, ko'chada yoki sinfdan tashqari paytlarda tojik, turkman, qirg'iz yoki boshqa (sheva) tilda so'zlashib, maktabda o'zbek tilida o'qishidir. Yetnografik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, jumhuriyatimiz hududida juda ko'p tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar, qozoqlar yashaydi. Xullas, o'quvshi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta'lim mazmuni yoki o'qituvshigagina bog'liq yemas. Barcha imkoniyatlar to'laligicha ishga solinsagina fikrni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish jarayoni oson kechadi. O'quvshi nutqini rivojlantirishga keng yo'l oshadi. Bizga ma'lumki, o'quvshilar bir xillikdan zerikadi. Shuning ushun ularni nutqini o'stirishda doimo har xil metod va o'yinlardan foydalanish lozim. Quyida shulardan ba'zilarini misol tariqasida keltiraman. "Hikoya" O'qituvshi xattaxtaga bir neshta so'z yozib qo'yadi. Masalan: Nafosat, yomg'ir, soat va adabiyot kabi. O'quvshilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar.

XULOSA VA MUNOZARA

Bundan tashqari, mazkur o'yinlardan foydalanganda o'quvshilarning nutqi rivojlanadi, lug'at boyligi yanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi. Yuqorida keltirilgan ta'limiy o'yinlar o'quvshilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil yetishga xizmat qiladi. Jamiyatimizni yerkinlashtirish g'oyasi bevosita ta'lim jarayonida o'z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o'zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta'minlanadi.

References:

1. Babaeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. – T.: 2018
2. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. –T.: 2016
3. Asqarova M. va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. –T.: 2011
4. Xaitov, L. A. (2021, December). THE ISSUE OF SUSTENANCE AND PROFESSION IN HAKIM TERMIZI'S WORK "BAYANUL KASB"("DESCRIPTION OF THE PROFESSION"). In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 67-69).
5. Azamatovich, X. L. (2021). The Concept of Heart In The Treatises Of Hakim Termizi. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2(3), 63-67.
6. Хайтов, Л. А. (2014). Значение эстетического воспитания в развитии личности студента педагогического вуза. Наука. Мысль: электронный периодический журнал, (10), 40-44.
7. Azamatovich, K. L. (2020). The role of the Hakim Termizi architectural complex in visiting tourism in Uzbekistan. Вопросы науки и образования, (9 (93)), 27-31.



8. Azamatovich, H. L. (2019). Hakim At Termiziy scientific heritage in the Hadis theme. International Journal on Integrated Education, 2(5), 10-13.
9. Sadikov, E. (2022). TIL O 'QITISHDA PRAGMATIKA MASALALARI: TA'RIFLAR, TANQIDLAR, TAHLILLAR VA TALQINLAR. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 24(24).
10. Sadikov, E. (2022). How pragmatic skills can help improve students' conversational skills. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 24(24).
11. Tursunovich, S. E. (2022). Classification of compliments as speech acts and their basic characteristics in Uzbek and English languages. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 4, 77-79.
12. Tursunovich, S. E. (2023). Actual Issues of Teaching Pragmatic Competences to English Language Learners in Uzbekistan. Miasto Przyszłości, 31, 148-152..